



Ushbu modulning ishchi dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 -yil "9"iyun 259-son buyrug'i ilovalaridan foydalangan holda va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2019 yil 12 .08.209-sonli buyrug'ining 4.2 ilovasi asosida kafedra professor o'qituvchilar tomonidan tayyorlandi.

**Tuzuvchilar :**

Alimova Sh.A. - kafedra assistenti, PhD.

**Taqrizchilar :**

Nurov U.I. - BDTI Otorinolaringologiya kafedrası mudiri, DSc.  
Odilova G.R. – BDTI Oftalmologiya kafedrası mudiri, DSc.

Kafedrada o'tiladigan fanlarning o'quv-uslubiy hujjatlari kafedra yig'ilishida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi .

Bayonnoma № 1 26.08.2025 yil

**Kafedra mudiri :**



**Nurov U.I**

Barcha yo'nalishlarda o'tiladigan fanlarning o'quv- uslubiy hujjatlari institut Ilmiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

Bayonnoma № 1 27.08.2025 yil

**OFIS registrator boshqarma boshlig'i :**



**O.B.Raxmatov**

**Ta'lim jarayonlarni muvofiqlashtirish  
sektori bosh mutaxassisi :**



**Adilova R.H**

## 1. O'quv moduli o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Otorinolaringologiya – keng tarqalgan kasalliklarning etiologiyasi, patogenezini, tasnifi, klinik kechishi, laboratoriya, asbob-uskunalar, klinik ko'rsatmalar yordamida tashhis qo'yish, oqibati, asorati, oldini olish choralarini, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda tezkor yordam ko'rsatish, mustaqil ravishda tekshirish o'tkazish, ishga layoqatligini bilish, davolash asoslarini o'rgatadigan fan bo'lib, umumiy amaliyot shifokori-bakalavr mutaxassisligiga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir. Talaba tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha zamonaviy davolash usullari bilan davolashning asosiy ko'nikmalarini hosil qilib amaliy va nazariy bilim olishga mo'ljallangan. Asosiy vaqt ekstremal holatlarda zamonaviy davolash usullarini qo'llab, malakani oshirishga qaratilgan.

Ushbu dastur Davlat ta'lim standarti va umumiy amaliyot shifokorini tayyorlash dasturi asosida tuzilgan, tibbiyot oliy o'quv yurtlarining davolash fakultetining talabalariga otorinolaringologiya fanidan ta'lim berish uchun mo'ljallangan.

## 2. Modulni o'qitish davomida rejalashtirilgan natijalar

**2.1. O'quv modulining maqsadi:** Otorinolaringologiya fanini o'qitishdan maqsad - bo'lajak umumiy amaliyot vrachlarini urgent LOR kasalliklari va eng ko'p uchraydigan LOR kasalliklarning LOR a'zolarida uchraydigan asoratlari, LOR a'zolari shikastlanishlari, o'smalari, shuningdek, ommaviy qirg'in o'choqlarda LOR a'zolarining shikastlanishlarini davolash va profilaktikasini o'rgatish.

Olgan bilim va ko'nikmalarini tibbiyotda qo'llay bilishlari uchun asosiy bilim berish, LOR a'zolarining holatini tekshirish usullarini va shu orqali organizm holatiga baho bera olishni o'rgatish va mustaqil ravishda birinchi tibbiy yordam ko'rsata oladigan umumiy amaliyot stomatologini tayyorlash.

### 2.2. O'quv modulining vazifalari:

- otorinolaringologiya fani haqida tushuncha berish;
- talabalarni nazariy ma'lumotdan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni bajarish darajasiga qadamma-qadam o'rgatish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiiq etib, talabani klinik fikrlash va bilimini saqlash darajasini oshirish;
- zamonaviy tekshirish usullari haqida tushunchaga ega bo'lish;
- LOR a'zolarining klinik anatomiyasini, tekshirish usullarini va LOR a'zolarining faoliyatlarini aniqlashni o'rgatish,
- LOR a'zolari kasalliklari diagnostikasi borasida to'liq tushuncha berish;
- umumsomatik va stomatologik kasalliklarda LOR a'zolaridagi simptomlarni aniqlash;
- LOR a'zolarining tug'ma va orttirilgan kasalliklarini tashxislash;
- LOR a'zolari kasalliklari profilaktikasini o'rgatish;
- LOR kasalliklarida rehabilitatsiya choralarini ko'rish;
- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;
- talabaning klinik fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan standartga mos amaliy ko'nikmalarni assistent-talaba, talaba-fantom uslubida avtomatizm darajasiga etkazish.

### 2.3. Modul bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarida qo'yiladigan talablar:

- LOR a'zolarining anatomiyasi, fiziologiyasi va faoliyatlari;
- Quloq, burun, burun yondosh bo'shliqlari, xalqum va hiqildoq nuqsonlari diagnostikasi, davolash va profilaktikasi;
- LOR a'zolari o'tkir va surunkali kasalliklari diagnostikasi, davolash va profilaktikasi;
- LOR a'zolari jarohatlari klinikasi, davolash, asoratlari va profilaktikasi;
- umumiy kasalliklarda uchraydigan LOR a'zolari asoratlari;
- bolalar va kattalarda karlikning sabablari;

- LOR a'zolari kasalliklarida bemorlarni reabilitatsiya va dispanserizatsiya qilish usullari haqida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- burun bo'shlig'i kasalliklari diagnostikasini va davolashni;
- burun yondosh bo'shliqlari kasallikparini diagnostikasini va davolashni;
- rinogen va odontogen gaymoritlarni qiyosiy diagnostikasini;
- o'rta quloq surunkali kasalliklari keltirib chiqaruvchi miya ichi asoratlarining belgilarini;
- LOR a'zolari jarohatlarini belgilarini va asoratlarini;
- LOR a'zolari yot jismlarini belgilarini va asoratlarini;
- LOR a'zolari kasalliklarida birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni;
- hid bilish, eshitish faoliyatini aniqlashni;
- muvozanat analizatori faoliyatini aniqlashni (kalorik, aylanma va pressor tajribalar);
- spontan nistagmni aniqlashni;
- tashqi eshituv yo'lini yuvishni;
- burundan qon ketganda orqa tamponada qo'yishni;
- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- otoskopiya o'tkazish;
- oldingi hamda orka rinoskopiya o'tkazish;
- faringoskopiya o'tkazish;
- laringoskopiya o'tkazish;
- burundan qon ketganda oldingi tamponada qo'yish;
- burunga tomchilar tomizish va malhamlar surtish;
- quloqqa tomchilar tomizish va malhamlar surtish **amaliy ko'nikmalariga (shu jumladan, klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.**

### 3. Modul tuzilmasi

#### Modul yuklamasi va o'quv ishlar turlari

| Semestr | Umumiy yuklama hajmi | Ma'ruza (soat) | Amaliyot/Klinik amaliyot (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Nazorat turi va shakli | Kredit (hajmi) |
|---------|----------------------|----------------|---------------------------------|------------------------|------------------------|----------------|
| IX-X    | 190                  | 12             | 48/48                           | 82                     | YaB                    | 5              |
| Jami    | 190                  | 12             | 96                              | 82                     |                        | 5              |

#### 3.1. Ma'ruza mashg'ulotlari [otolaryngology-curriculum-aug-2021-approved-oct-20.pdf](#)

| t/n | Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari   | Soati | Egallashi shart bo'lgan kompetensiyalar kodi |
|-----|--|-------|--|
| 1   | Burun va yondosh bo'shliqlarining klinik anatomiyasi va fiziologiyasi. Zamonaviy tekshirish usullari kasalliklari. Davolash usullari | 2     | UK 1<br>UK 4.<br>UKK 1.<br>KK 3.             |
| 2   | Quloqning klinik anatomiyasi va fiziologiyasi. Zamonaviy tekshirish usullari. Davolash usullari.                                     | 2     | UK 3.<br>UK 4.<br>UKK 2<br>KK 4              |
| 3   | Quloq kasalliklarining asoratlari. Davolash usullari.  | 2     | UK 1<br>UK 4.<br>UKK 1.<br>KK 3.             |
| 4   | Halqumning klinik anatomiyasi va fiziologiyasi. Zamonaviy tekshirish usullari. Kasalliklari. Davolash usullari.                      | 2     | UK 2.<br>UK 5.<br>UKK 2.                     |

|              |  |                |                                   |
|--------------|--|----------------|-----------------------------------|
|              |  |                | KK 7                              |
| 5            | Hiqildoqning klinik anatomiyasi va fiziologiyasi. Zamonaviy tekshirish usullari. Kasalliklari. Davolash usullari                 | 2              | UKK 1<br>UK 4.<br>UKK 1.<br>KK 2. |
| 6            | LOR a'zolarining xavfsiz va xavfli o'smalari. Zahm, OITS va silda LOR a'zolarining shikastlanishi. Zamonaviy tekshirish usullari | 2              | UK 1<br>UK 2<br>UKK 3.<br>KK 9.   |
| <b>JAMI:</b> |  | <b>12 soat</b> |                                   |

3.2.1. Amaliy va klinik mashg'ulotlarni tashkil etish [otolaryngology-curriculum-aug-2021-approved-oct-20.pdf](#)

| t/n | Amaliy mashg'ulot mavzusi  | Soat | Amaliy ko'nikmalar raqami | Egallashi shart bo'lgan kompetensiyalar kodi | O'quv uslubiy ta'minoti                         |
|-----|--|------|---------------------------|--|---|
| 1.  | Burun va yondosh bo'shliqlarining klinik anatomiyasi. Yuqori nafas yo'llarining fiziologik ahamiyati. Mukosiliar transport. Burun va yondosh bo'shliqlarini tekshirish usullari. Rinoskopiya<br>A) burun va BYB larini tekshirishni mashq qilish;<br>B) o'zaro bir-birini ko'rikdan o'tkazish.   | 2/2  | 4                         | UK 1<br>UK 3.<br>UKK 2.<br>KK7               | O'quv uslubiy majmua, slaydalar, multimedialar  |
| 2.  | Halqumning klinik anatomiyasi. Halqum limfadenoidal halqasining morfo-fiziologik xarakteristikasi. LOR a'zolarining yoshga qarab o'ziga xos tuzilishi, topografiyasi va bularning LOR a'zolari patologiyasida ahamiyati. Halqumni endoskopik tekshirish usullari. <b>Faringoskopiya</b><br>A) halqumni tekshirishni mashq qilish;<br>B) o'zaro bir-birini ko'rikdan o'tkazish. | 2/2  | 1                         | UK 2<br>UK 4.<br>UKK 1.<br>KK 3.             | O'quv uslubiy majmua, slaydalar, multimedialar  |
| 3.  | Hiqildoq, traxeya, bronx va qizilo'ngachning klinik anatomiyasi, fiziologiyasi va tekshirish usullari. Ovoz hosil bo'lish nazariyasi, bolalar va o'smirlarda ovoz o'zgarishi bosqichlari. Ovoz apparatini tekshirish usullari. <b>Laringoskopiya.</b><br>A) hiqildoqni tekshirishni mashq qilish;<br>B) o'zaro bir-birini ko'rikdan o'tkazish.                                 | 2/2  | 6                         | UKK 3.<br>UKK 2<br>UKK 5.<br>KK 7            | O'quv uslubiy majmua , slaydalar, multimedialar |
| 4.  | Quloqning klinik anatomiyasi, fiziologiyasi va tekshirish usullari. Eshitish analizatorining klinik anatomiyasi, fiziologiyasi va tekshirish usullari. Kattalar va kichik yosh bolalarda eshitish zaifligi va karlikni zamonaviy tekshirish usullari. Koxlear implantasiya haqida tushuncha. <b>Otoskopiya</b><br>A) quloqni tekshirishni mashq qilish,                        | 2/2  | 2, 5                      | UK 1<br>UK 4.<br>UKK 4.<br>KK 4.             | O'quv uslubiy majmua , slaydalar, multimedialar |

|    |  |     |     |                                  |   |
|----|--|-----|-----|----------------------------------|---|
|    | kamertonlar yordamida tekshirish;<br>B) audiometriya prinsiplarini o'zlashtirish;<br>V) o'zaro bir-birlarida audiometriya qilish.  |     |     |                                  |   |
| 5. | Vestibulyar analizatorni klinik anatomiyasi, fiziologiyasi va tekshirish usullari.<br>A) quloqni tekshirishni mashq qilish;<br>B) aylantirish va kalorik sinamalarini o'tkazishni o'zaro mashq qilish (bir-birlarida);   | 2/2 | 5   | UK1<br>UK 3.<br>UKK 1.<br>KK 2.  | O'quv uslubiy majmua ,<br>slaydalar,<br>multimedialar |
| 6  | Burunning o'tkir kasalliklari. Burun jarohati. Burun qonashi, to'xtatish usullari. Oldingi tamponada<br><b>Oldingi tamponada.</b><br>A) burun kasalliklari mavjud bemorlarni talabalarga ko'rsatish;<br>B) rentgenogrammalarni tahlil qilish;<br>V) burun shilliq qavatini anemizatsiya qilish texnikasini o'rgatish.  | 2/2 | 3,4 | UK 1<br>UK 4.<br>UKK 4.<br>KK 8. | O'quv uslubiy majmua ,<br>slaydalar,<br>multimedialar |
| 7  | Burunning surunkali kasalliklari. Ushbu kasalliklarning rivojlanishida allergiyaning roli. Konservativ va jarrohlik davolash tamoyillari.<br>A) burun kasalliklari mavjud bemorlarni talabalarga ko'rsatish;<br>B) rentgenogrammalarni tahlil qilish;  | 3/3 | 4   | UK 1<br>UK 4.<br>UKK 4.<br>KK 8. | O'quv uslubiy majmua ,<br>slaydalar,<br>multimedialar |
| 8  | Burun yondosh bo'shliqlarining o'tkir kasalliklari. Burun yondosh bo'shliqlari jarohati. Konservativ va jarrohlik davolash tamoyillari.<br>A) burun yondosh bo'shliqlari kasalliklari mavjud bo'lgan bemorlarni talabalarga ko'rsatish;<br>B) rentgenogrammalar tahlili.   | 3/3 | 4   | UK 1<br>UK 5.<br>UKK 3.<br>KK 2. | O'quv uslubiy majmua ,<br>slaydalar,<br>multimedialar |
| 9  | Burun yondosh bo'shliqlarining surunkali kasalliklari. Sinusitlar tasnifi. Rinogen asoratlari (ko'z va miya ichi). Konservativ va jarrohlik davolash tamoyillari. COVID-19 ta'sirida miya ichi asoratlarning kelib chiqishi.<br>A) burun yondosh bo'shliqlari kasalliklari mavjud bo'lgan bemorlarni talabalarga ko'rsatish;<br>B) rentgenogrammalar tahlili;<br>V) punktsiya texnikasi bilan tanishish. | 3/3 | 4   | UK 1<br>UK 4.<br>UKK 4.<br>KK 8. | O'quv uslubiy majmua ,<br>slaydalar,<br>multimedialar |
| 10 | Tashqi va o'rta quloqning o'tkir yallig'lanish kasalliklari va ularning asoratlari. Bolalarda otit, antrit, mastoidit kechishining o'ziga xosligi.<br><b>Quloqni yuvish</b><br>A) quloq kasalliklari bor bemorlarni namoyish qilish;<br>B) quloqni tozalash ko'nikmalari, quloqqa dori yuborish.   | 3/3 | 5,7 | UK 2<br>UK 4.<br>UKK 4.<br>KK 2. | O'quv uslubiy majmua ,<br>slaydalar,<br>multimedialar |
| 11 | O'rta quloqning surunkali yallig'lanish kasalliklari. Labirintit. Otogen miya ichi asoratlari va otogen sepsis (qiyosiy tashhis, kechishi, xirurgik davolash usullari).<br>A) kasallarni namoyish qilish;<br>B) jarrohlik amaliyoti tahlillari.  | 3/3 | 5   | UK 3.<br>UK 5<br>UKK 5.<br>KK 3  | O'quv uslubiy majmua ,<br>slaydalar,<br>multimedialar |

|    |  |                   |     |                                  |  |
|----|--|-------------------|-----|----------------------------------|--|
| 12 | Quloqning yiringsiz kasalliklari. Otorinologiyada professional tanlash va ekspertiza. Surdologiya. Eshitish zaifligini aniklash (shivirlash va nutqli)<br>A) kasallarni namoyish qilish;<br>B) audiometriya natijalari tahlillari.   | 3/3               | 2,5 | UK 1<br>UK 4.<br>UKK 4.<br>KK 8. | O'quv uslubiy majmua ,<br>slydalar,<br>multimedialar |
| 13 | Halqumning o'tkir kasalliklari va ularning asoratlari. Yuqumli kasalliklar va qon hosil qilish tizimi kasalliklarida angina.<br>A) halqum kasalliklari bor bemorlarni namoyish qilish;<br>B) halqum shilliq qavati va murtak bezlariga dorilar surtish.  | 3/3               | 1   | UK 3<br>UK 4.<br>UKK 3.<br>KK 9. | O'quv uslubiy majmua ,<br>slydalar,<br>multimedialar |
| 14 | Surunkali tonzillit, tasnifi, ichki kasalliklar patogenezida ahamiyati, tashhis va davosi. Surunkali tonzilliti bor bo'lgan bemorlarning dispanserizatsiyasi. Halqum orti absessi. Tanglay va halqum bezlarining gipertrofiyasi belgilari va davosi. Talabalar mustaqil ishlari prezentatsiyasi.<br>A) halqum kasalliklari bor bemorlarni namoyish qilish;<br>B) lakunalarda yiringli tiqmalar borligini tekshirish. | 3/3               | 1   | UK 1<br>UK 4.<br>UKK 4.<br>KK 8. | O'quv uslubiy majmua ,<br>slydalar,<br>multimedialar |
| 15 | Hiqildoqning o'tkir kasalliklari. Hiqildoqning o'tkir stenoz. Koservativ va jarrohlik davolash tamoyillari.<br>A)hiqildoq kasalliklari bor bemorlarni namoyish etish<br>B) jarrohlik amaliyoti tahlillari.   | 3/3               | 6   | UK 1<br>UK 2.<br>UKK 3.<br>KK 3. | O'quv uslubiy majmua ,<br>slydalar,<br>multimedialar |
| 16 | Hiqildoqning surunkali kasalliklari. Hiqildoqning surunkali stenoz. Ovoz buzilishi, kasbiy disfoniya.<br>A)hiqildoq kasalliklari bor bemorlarni namoyish etish;<br>B) traxeostomik kanyulani parvarishlash.  | 3/3               | 6   | UK 1<br>UK 2.<br>UKK 3.<br>KK 3. | O'quv uslubiy majmua ,<br>slydalar,<br>multimedialar |
| 17 | LOR a'zolarining xavfsiz va xavfli o'smalari. Yuqori nafas a'zolarining infeksiyon granulemalari. OIV-infeksiyasida LOR a'zolarining holati.<br>A) kasallarni namoyish qilish;<br>B) Mustaqil ishlar tahlili.  | 3/3               | 1-7 | UK 1<br>UK 2.<br>UKK 3.<br>KK 3. | O'quv uslubiy majmua ,<br>slydalar,<br>multimedialar |
| 18 | LOR a'zolarining yot jismlari. LOR a'zolarida jarohat, qonash bo'lganida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Traxeotomiya.<br>A) kasallarni namoyish qilish;<br>B) traxeostomik kanyulani parvarishlash.<br>V) kasallik tarixlari himoyasi.  | 3/3               | 1-7 | UK 1<br>UK 4.<br>UKK 1.<br>KK 1. | O'quv uslubiy majmua ,<br>slydalar,<br>multimedialar |
|    | <b>JAMI:</b>   | <b>48/<br/>48</b> |     |                                  |  |

### 3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalar qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

### **3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:**

Modul davomida talabalar keng tarqalgan ichki a'zolar kasalliklariga nozologik klassifikatsiyalar, laborator va instrumental usullar hamda diagnostik me'zonlardan yordamida klinik tashxis qo'yish, standartlar asosida davolash va davo samaradorligini nazorat qilish, kasallik asoratlarini oldini olish, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda tezkor yordam ko'rsata olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:**

#### **9 semestr:**

1. Faringoskopiya
2. Eshitish zaifligini aniqlash (testlar-shivirlash va nutqli).
3. Oldingi tamponada.
4. Oldingi rinoskopiya
5. Otokopiya
6. Bilvosita laringoskopiya
7. Quloqni yuvish

#### **Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:**

- UK1<sup>1</sup>. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;
- UK2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;
- UK3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;
- UK4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;
- UK5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;
- UKK1<sup>2</sup>. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;
- UKK2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;
- UKK3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;
- UKK4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;
- KK 1<sup>3</sup>. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, kasalliklar paydo bo'lishi va (yoki) tarqalishining oldini olishga, ularni erta tashxislashga, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishining sabablari va sharoitlarini aniqlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish qobiliyati va tayyorligi, atrof-muhit omillarining bolalar sog'lig'iga zararli ta'sirini bartaraf etish
- KK 2. Kasallikni aniqlash uchun bemorlarning shikoyatlarini, anamnezidan olingan ma'lumotlarni, tekshiruv natijalarini, laboratoriya, instrumental, patologik-anatomik va boshqa tadqiqotlarni yig'ish va tahlil qilishga tayyorligi.
- KK 3. Kasalliklarning asosiy patologik holatlarini, alomatlarini, kasallik sindromlarini, kasalliklarning xalqaro statistik tasnifiga muvofiq nozologik shakllarini aniqlash qobiliyati
- KK4. Turli nozologik shakllarga ega bemorlarni davolash taktikasini aniqlash qobiliyati
- KK7. Xavf omillarini bartaraf etish va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish uchun tayyorligi

---

1 UK- Umumiy kompetensiya

2 UKK – Umumiy kasbiy kompetensiya

3 KK – Kasbiy kompetensiya

KK8. Dalillarga asoslangan tibbiyot asosida axborotni tahlil qilish va ommaviy ravishda namoyish etishga tayyorligi

KK 9. Ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish qobiliyati

---

**Modul davomida o'quv amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:** Talabalarining otorinolarologiya fani bo'yicha klinik amaliyoti ta'lim jarayonining 50%ini tashkil qiladi va amaliy mashg'ulotlar LOR bo'limida va poliklinikasi xonalarida o'tkaziladi.

- Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich – mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganishning motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob anjomlar, ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalari bilan talabar tanishtiriladi.

Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedrada barcha asbob anjomlar mavjud va ishchi holatda bo'lishi lozim.

2. Ikkinchi bosqich – amaliy ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni kadamma kadam algoritmi pedagog tomonidan va videofilmlar orqali namoyish etiladi, algoritmi asosida bosqichma bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Talaba amaliy ko'nikmani mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, talabalar o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida, keyin umumlashtirgan xolda to'liq va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruxsat beriladi (imitatsion trening).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko'nikmalar qadamma - qadam algoritmi va videofilmi, o'quv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob anjomlar bo'lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda pedagog nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'irlaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoyish etilishi, kritik muhokama qilinishi mumkin. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladi, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko'nikma avtomatizm darajasigacha etkazilishi maqsadga muvofiq.

3. Uchinchi bosqich - o'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemorda qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli hil klinik holatlarda (shu jumladan, shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni taxlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi.

Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalar va testlar to'plami, keyslar, klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi kasallik tarixlari va ambulator kartalar va x.q. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladi, bunda boshqa talabalar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda, balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.

4. To'rtinchi bosqich – xulosa. Bu bosqichda pedagog talaba tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlarda, turli xil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'lla olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirildi deb xisoblanadi.

To'rtinchi bosqichni amalga oshirish uchun talaba bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, kasallik tarixini yozib himoya qilganda baxolanadi.

Mashg'ulot so'nggida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda

mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

#### 4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

##### 4.1. Mustaqil ta'lim mavzulari

| t/n | Mustaqil ta'lim mavzulari  | Soatlar hajmi | Mustaqil ish shakli |
|-----|--|---------------|---------------------|
| 1   | LOR a`zolarining zamonaviy tekshiruv usullari.   | 4             | Referat             |
| 2   | Quloq anomaliyalari.   | 5             | Referat             |
| 3.  | Yuz nervi anatomiyasi va kasalliklari.   | 5             | Referat             |
| 4.  | Ballonosinusoplastika.   | 4             | Referat             |
| 5.  | Allergik rinit va ularni zamonaviy davolash usullari.                                  | 4             | Referat             |
| 6.  | Nistagm va uning turlari.  | 5             | Referat             |
| 7   | Men`er kasalligi va zamonaviy davolash usullari.                                       | 4             | Referat             |
| 8   | Koxlear implantsiya.   | 4             | Referat             |
| 9   | Muvozanat buzilishi va uning turlari.  | 5             | Referat             |
| 10  | COVID-19da LOR a'zolarining o'zgarishlari.   | 5             | Referat             |
| 11  | Ozena.   | 4             | Referat             |
| 12  | Chin bo'g'ma.  | 5             | Referat             |
| 13  | Bolalarda stenozlovchi laringotraxeyit.  | 5             | Referat             |
| 14  | OITSda LOR a'zolarining o'zgarishlari.   | 5             | Referat             |
| 15  | LOR azolarida yot jismlarda birinchi yordam.   | 4             | Referat             |
| 16  | LOR a'zolarining o'sma kasalliklari.   | 5             | Referat             |
| 17  | Adenoid vegetasiyalari.  | 4             | Referat             |
| 18  | Vegener granulomatozida LOR azolari zararlanishi. LOR a'zolari spetsifik kasalliklari. | 5             | Referat             |
|     | <b>JAMI:</b>   | 82            |                     |

##### 4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Otorinolarinologiya moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislari tayyorlash;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalarni echish;
- keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sasestudy) yechish;
- grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish;
- krossvordlar tuzish va echish;
- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustaqil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

##### 4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Otorinolarinologiya moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda

tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan ro'yxat asosida navbatchi shifokor-pedagog nazoratida standartlashtirilgan patsientlar (bemorlar) kuratsiyasini o'tkazish va olib borish, dori bilan davolash tahlilini yozish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- bemorlarni kuratsiya qilishda davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan birgalikda ishtirok etish;

- aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish tamoyillari haqida suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish;

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish; - berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayarlash;

- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;

- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;

- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) echish. - krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

## **5. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari ro'yhati**

### **5.1. Asosiy adabiyotlar**

1. Q.Q. Qosimov va boshq. Otorinolarinologiya. Darslik. 2019 y. (lotin).
2. Q.Q. Qosimov. Otolaringologiya. Uchebnik. 2019 y.
3. S.A. Hasanov, N.X. Vohidov. Otorinolarinologiya. Darslik. – Toshkent. 2013 y.
4. Palchun V.T., Magamedov M.M., Luchixin L.A. Otorinolarinologiya. Uchebnik. - Moskva. Geotar – Media. 2011g.
5. Xodjaeva K.A. Amaliy Otorinolarinologiya. Darslik. – Toshkent. "Sano – standart" nashriyoti. 2005 y.

### **5.2. Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Kozlov M.Ya., Svetkov E.A., Egorov L.V. Praktikum po detskoy otorinolarinologii. Monografiya. - Sankt-Peterburg. PMI. 2012 g.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajag'imizning mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "o'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2017y.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2017 y.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "o'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2016 y.
5. Palchun V.T., Luchixin N.A., Magomedov M.M. Rukovodstvo po prakticheskoy otorinolarinologii. Monografiya. Moskva. OOO Medisinskoe informacionnoe agentstvo. – 2011g.
6. Soldatov I.B. Leksii po otorinolarinologii. Moskva. OOO Medisinskoe informacionnoe

- agentstvo. 2009g.
7. Soldatov I.B. Rukovodstvo po otorinolaringologii. Monografiya. Moskva. OOO Medisinskoe informasionnoe agentstvo. 2014g.
  8. Shevrigin B.V."Detskaya Otorinolaringologiya". Monografiya. Moskva. OOO Medisinskoe informasionnoe agentstvo. 2016g.

### **6.3. Internet saytlar:**

1. [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)
2. www.tma. Uz
3. www. Ziyonet;
4. Lonline.ru – Meditsinskiy portal vrachey otorinolaringologov
5. <http://www.mediasphera.ru/journals/oto/>,
6. <http://www.rinology.ru/>, <http://www.likar/info/>
7. www. Or.by.ruindex. Htm, [http:// stsrt.binet.com.ua/-i/ent.books/Elancev/](http://stsrt.binet.com.ua/-i/ent.books/Elancev/), <http://lonline.ru>.
8. www.Visit Willams & Wilkins on the internet.